

ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA TASAVVUF, RUHIY KAMOLOT VA NAQSHBANDIYA G'OYALARI

Sattorova Madina Zafarjon qizi,

Andijon davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti magistranti

E-mail: sattorovamadina3004@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy g'azallarida tasavvufiy qarashlarning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda "G'aroyib us-sig'ar" va "Favoyid ul-kibar" devonlaridagi ayrim g'azallar germenevtik yondashuv asosida o'rganilib, ulardagi ramziy obrazlar, ilohiy muhabbat, riyosiz taqvo, yaxshi axloq va fano g'oyalari ochib beriladi. Shuningdek, Navoiy tasavvufiy qarashlarining Naqshbandiya tariqati tamoyillari bilan uyg'un jihatlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, g'azal, ruhiy kamolot, komil inson, Naqshbandiya tariqati, qalb pokligi, nafs, riyo, ixlos, ilohiy muhabbat

Аннотация. В данной статье анализируется художественное выражение суфийских взглядов в газелях Алишера Навои. В исследовании отдельные газели из диванов «Гаройиб ус-сигар» и «Фавойид ул-кибар» рассматриваются на основе герменевтического подхода, раскрываются символические образы, божественная любовь, искренняя набожность, высокая нравственность и идея фана. Также показана гармония суфийских взглядов Навои с принципами тариката Накибандия.

Ключевые слова: Суфизм, газель, духовное совершенство, совершенный человек, тарикат Накибандия, очищение сердца, нафс, рия, искренность, божественная любовь.

Abstract. This article analyzes the artistic expression of Sufi views in Alisher Navoi's ghazals. The study examines selected ghazals from the divans "Gharoyib us-sighar" and "Favoyid ul-kibar" on the basis of a hermeneutic approach, revealing symbolic images, divine love, sincere piety, good morals, and the idea of fana. The article also shows the harmony between Navoi's Sufi views and the principles of the Naqshbandi order.

Keywords: Sufism, ghazal, spiritual perfection, perfect human, Naqshbandi order, purity of heart, nafs, hypocrisy, sincerity, divine love, fana.

Kirish. Alisher Navoiy butun turkiy adabiyotda eng katta lirik merosga ega qalamkash hisoblanadi. G'azallar ko'pincha ishqiy mavzuda bitiladi. Zotan, uning lug'aviy ma'nosi ham shunga ishora qiladi.[1] U o'z asarlarida tasavvufiy g'oyalarni chuqur falsafiy mazmunda ifodalab, inson, jamiyat va borliq o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi. Navoiy nafaqat shoir va adib, balki Sharq falsafiy tafakkurini yangi bosqichga olib chiqqan mutafakkir sifatida ham alohida ahamiyatga ega.[2] XV asr ijtimoiy-madaniy muhitida naqshbandiya tariqati keng yoyilgan bo'lib, ruhiy poklanish, mehnat orqali komillik, ichki ixlos kabi tamoyillar targ'ib etilgan.[3]

Shoir asarlarida inson ikki qarama-qarshi kuch – nafs va ruh o'rtasidagi kurash maydoni sifatida tasvirlanadi. Nafs moddiylikka tortadi, ruh esa ilohiylikka intiladi. Ruhiy kamolot bu ikki kuch o'rtasidagi muvozanatni topish va ruhni ustuvor qilish jarayonidir.

Adabiyotlar tahlili. Navoiyning tasavvufiy qarashlariga ko'ra, inson hayotining asosiy maqsadi moddiy boylik yoki mansab emas, balki ruhiy yetuklik va ilohiy haqiqatga yetishdir. U insonni doimiy ravishda o'z ustida ishlashga, nafsni jilovlashga va axloqiy poklanishga chaqiradi. Komil inson g'oyasi Alisher Navoiyning tasavvufiy

falsafasida markaziy o‘rinni egallaydi.[4] Komil inson —bu o‘z nafsini yenggan, axloqan pok, adolatli, halol va jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘ya oladigan shaxsdir.[5] Shoir ijodida tasavvufiy olamning markazida inson turadi. Inson – ilohiy nur zarrasi mujassam bo‘lgan mavjudotdir. U moddiy va ma’naviy dunyo oralig‘ida joylashgan. Shoir insonni “kichik olam” deb talqin qiladi. Insonning asosiy vazifasi – o‘z mohiyatini anglashdir.

Navoiyshunos olim N. Komilov ta’biri bilan aytganda “timsollar timsoli” shoir ijodining deyarli barcha qatlamlarida uchraydi. Alisher Navoiy badiiy tafakkurida ramz va timsollar oddiy tasvir vositasi bo‘lib qolmay, balki chuqur falsafiy, axloqiy va tasavvufiy mazmuni ifodalovchi asosiy badiiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodini o‘rganish va tahlil qilishda germenevtik yondashuv ya’ni matnning ichki ma’nosini ochish uchun asosiy metodlardan biri sifatida qo‘llanildi. Ramziy obrazlar tasavvufiy kontekstda talqin qilindi.

Tahlillar va natijalar. “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining ilk g‘azali ilohiy muhabbat va uning tajallisiga bag‘ishlangan:

*“Ashraquat min aksi shamsil-ka’si anvorul-hudo”,
Yor aksin mayda ko‘r deb, jomdin chiqdi sado.*

Tong-sahar chiqan quyosh kosasining aksidan hidoyat nurlari-yo‘l ko‘rsatuvchi nurlar porlab ko‘rindi. Alloh jamolini mayda ko‘r deb jomdan ovoz keldi deydi shoir.

“Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi to‘rtinchi devon — “Favoyid ul-kibar”da “fa” harfiga bag‘ishlangan bo‘limning to‘rtinchi g‘azali tasavvuf mohiyatini sodda, ammo chuqur ma’noda yoritadi. G‘azalda Navoiy tasavvufni tashqi ko‘rinish yoki quruq ibodatdan yiroq, balki inson qalbining poklanishi, axloqiy kamolot va Haq roziligiga intilish yo‘li sifatida talqin qiladi. Shoir bu haqda shunday deydi:

*Birovga musallam tariqi tasavvuf-ki,
Zotida mavjud emastur taxalluf.*

Tasavvuf yo‘li har kimga ham ochiq emasligi, uni anglash uchun insonning “zotida”, ya’ni ichki olamida ziddiyat, ikkiyuzlamachilik va qarama-qarshilik bo‘lmasligi lozimligi ta’kidlanadi. Germenevtik talqinda “taxalluf” so‘zi inson ruhiyatidagi beqarorlik, niyatdagi nopoklik, so‘z va amal o‘rtasidagi tafovut ma’nolarini ham bildiradi.

Shoir tasavvufni yaxshi axloq, taqdirga rozilik va samimiy bandalik bilan bog‘laydi:

*Tasavvuf rizo ahlidin yaxshi axloq,
Erur istilohoti zeb-u takalluf.*

“Rizo ahli” iborasi muhim ma’noga ega. U Allohning taqdiriga rozi bo‘lgan, hayot sinovlarini sabr bilan qabul qilgan kishilarni anglatadi. Tasavvufning markazida yaxshi axloq turgani ko‘rinadi. “Zeb-u takalluf” esa tasavvufning o‘ziga xos istilohlari, ramziy tili va ma’naviy go‘zalligini bildiradi.

Navoiy tasavvufni riyo aralashgan zuhd, taqvo yoki ibodat bilan tenglashtirmaydi. U bunday tashqi dindorlikni haqiqiy tasavvufdan farqlaydi:

*Tasavvuf emas zuhd-u taqvo-yu toat-ki,
Anda riyo yo 'l topar betavaqquf.*

Shoirning fikricha, agar ibodat, taqvo yoki zohidlik odamlar ko'zi uchun bajarilsa, u tasavvuf mohiyatiga zid bo'ladi. Haqiqiy tasavvuf riyodan xoli, ixlosga asoslangan bo'lishi kerak.

G'azalning keyingi baytlarida tasavvufning asl mohiyati yanada aniqroq ochiladi:

*Erur mahz taqvo-yu lekin riyosiz,
Ubudiyat, sarf-u ayni talattuf.*

Baytda shoir avvalgi fikrini davom ettirib, tasavvufning asl mohiyatini aniq ko'rsatadi. Tasavvuf — taqvo, ammo riyosiz taqvo; bandalik, ammo majburiy emas, ixlosli bandalik; o'zini Haq yo'lga sarflash, ammo odamlarga dag'allik bilan emas, "talattuf", ya'ni mehr, yumshoqlik va iltifot bilan munosabatda bo'lishdir. Germenevtik yondashuvda "ubudiyat" insonning Alloh oldidagi bandalik maqomini anglashini, "sarf" esa o'z borlig'i, kuchi va irodasini Haq yo'lida bag'ishlashini bildiradi. "Talattuf" esa tasavvufning faqat ichki ruhiy tajriba emas, balki ijtimoiy axloqqa ham daxldor ekanini ko'rsatadi.


G'azal yakunida Navoiy tasavvufning eng oliy nuqtasini Haq vujudida o'z vujudini mahv etish, ya'ni nafs va xudbinlikdan kechish bilan izohlaydi:

*Qilib Haq vujudida mahv o'z vujudin,
Navoiy, muni bil tariqi tasavvuf.*

Tasavvufning so'nggi maqsadi qilib "fano" g'oyasi ifodalangan. "O'z vujudini Haq vujudida mahv qilish" deganda insonning jismonan yo'qolishi emas, balki nafs, kibr, xudbinlik va "menlik"dan voz kechishi tushuniladi.

Navoiy talqinida tasavvuf tarkidunyochilik yoki tashqi ko'rinishga asoslangan dindorlik emas. U inson qalbini riyodan poklaydigan, Alloh taqdiriga rozilik hissini kuchaytiradigan, yaxshi axloq, samimiy ibodat va ruhiy osoyishtalikka yetaklaydigan ma'naviy kamolot yo'lidir. Haqiqiy so'fiy odamlar ko'rishi uchun emas, balki Haq roziligi uchun yashaydi.

Alisher Navoiy g'azallarida tasavvufiy qarashlar nazariy tushuncha tarzida emas, balki badiiy obraz, ramz va ruhiy kechinmalar orqali ifodalanadi. "G'aroyib us-sig'ar" devonining ilk g'azalidagi "**Ashraquat min aksi shamsil-ka'si anvorul-hudo**" misrasida ilohiy muhabbat va hidoyat nuri asosiy g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerda "shams", "ka's", "may", "jom", "yor aksi" kabi obrazlar tasavvufiy ramzlar bo'lib, jomdagi mayda yor aksining ko'rinishi inson qalbida Haq jamolining tajalli etishini anglatadi.



Chizma 1. Navoiy g'azalida tasavvufning ma'naviy-axloqiy asoslari.

Alisher Navoiy g'azalida tasavvufning asosiy mazmuni ichki poklik, yaxshi axloq, riyosiz taqvo va Haqqa yaqinlik tushunchalari orqali ochiladi.(Chizma 1.) Bu jihatlar Naqshbandiya tariqatining asosiy g'oyalari bilan uyg'unlashadi. Naqshbandiya ta'limotida inson qalbining pokligi, ixlos, halollik, kamtarlik va Haq roziligiga intilish muhim o'rin tutadi.

Ichki poklik inson qalbida ziddiyat, ikkiyuzlamachilik va soxtalik bo'lmasligini bildiradi. G'azaldagi "taxalluf yo'q" mazmuni aynan shu holatni ifodalaydi. Naqshbandiyada ham qalbni poklash, niyatni to'g'rilash va riyodan saqlanish asosiy talab sifatida qaraladi. G'oya "dil ba yor-u dast ba kor" tamoyili bilan bog'lanadi: inson hayotda mehnat qiladi, ammo qalban Haqni unutmaydi.

Yaxshi axloq tasavvufning muhim belgilaridan biridir. "Rizo ahli", sabr, rozilik va odob tushunchalari insonning taqdirga rozi bo'lishi, sinovlarga sabr bilan qarashi va odamlar bilan go'zal muomala qilishi zarurligini ko'rsatadi. Naqshbandiya tariqatida ham odob, kamtarlik, sabr va halollik yuksak qadriyat sanaladi.

Riyosiz taqvo haqiqiy ixlos va samimiyatni anglatadi. Navoiy g'azalida zohiriy ibodatdan ko'ra qalbdagi pok niyat ustun qo'yiladi. Naqshbandiyada ham ibodat, zikr va taqvo sokinlik, ichki xotirjamlik va qalbiy ixlos bilan bajariladi.

Haqqa yaqinlik tasavvufiy yo'lning oliy bosqichidir. Bu bosqichda inson nafs, kibr va "menlik"dan kechadi. "Fano", "mahv bo'lish", "Haq vujudi" kabi tushunchalar shu ma'noni bildiradi. Naqshbandiyada ham nafsni yengish, kibrdan uzoqlashish va qalban Haqqa yaqinlashish asosiy maqsadlardan hisoblanadi.

Xulosa. Alisher Navoiy ijodida tasavvuf inson ruhiy kamolotining muhim asosi sifatida talqin qilinadi. Tasavvufni insonning o'z ichki olamini poklashi, nafs va kibrdan voz kechishi, riyo va ikkiyuzlamachilikdan uzoqlashishi bilan bog'lagani ko'rindi. Bu

g'oyalar Naqshbandiya tariqatining qalb pokligi, ixlos, odob, halollik va Haqni unutmagan holda hayot kechirish tamoyillari bilan uyg'unlashadi.

Navoiy talqinida haqiqiy tasavvuf insonni hayotdan chetlashtirmaydi, aksincha, uni ma'nan poklaydi, axloqan yuksaltiradi va jamiyatda ezgulik bilan yashashga undaydi. Shoir tasvirlagan komil inson obrazi ham aynan qalbi pok, niyati sof, amali ixlosli va Haq roziligini oliy maqsad deb biladigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nasimova F. Alisher Navoiyning rindona g'azallarida tasavvufiy tushunchalar tahlili //Alisher Navoiy va XXI asr. – 2026. – T. 11.
2. Toshpulatov T. Alisher Navoiy va uning tasavvufiy falsafasi: Navoiyning tasavvuf g'oyalari va ularning sharq falsafasiga ta'siri // "Ilm fan qanoti". – 2026. – T. 1. – №. 1..
3. A'zamjonov I.K. Alisher Navoiy ijodida tasavvufiy olam: ruhiy kamolot va insoniy ma'naviyat // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2026. – № 6(3). – B. 1–5.
4. Turg'unboyeva G. "Alisher Navoiy ijodining keyingi davr adabiyotiga ta'siri." *Tadqiqotlar* 76.7 (2025): - B.93-96.
5. Toshpulatov T. Alisher Navoiy va uning tasavvufiy falsafasi: Navoiyning tasavvuf g'oyalari va ularning sharq falsafasiga ta'siri // "Ilm fan qanoti". – 2026. – T. 1. – №. 1.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934